



Samarqand veterinariya meditsinasi  
instituti rektorining 2021-yil “17”  
noyabrdagi 521 -son buyrugiga  
1 –ilova

## Samarqand veterinariya meditsinasi institutining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha siyosati

### 1 bob. Umumiy qoidalar

Ushbu Siyosat Samarqand veterinariya meditsinasi instituti, filiallar, texnikumlar va litsey (keyingi o'rinlarda \_institut)da xalollik siyosatini ta'minlash, ya'ni xodimlar va umuman jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyatini oshirish maqsadida yuksak hulq-atvor standartlariga muvofiqlik, shuningdek lavozim (xizmat) majburiyatlarini bajarish chog'ida Institut xodimlari tomonidan korrupsiyaviy harakatlar sodir etilishiga yo'l qo'ymaslikka doir pozitsiyasini ifodalaydi.

Ushbu Siyosat O'zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi ko'rash to'g'risida”gi Qonuni talablari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-son “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi, 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-son “Davlat organlari va institutlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmonlari 2019-yil 27-maydagi PF-5729-son “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-martdagi 62-son “Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi xokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalarini tasdiklash to'g'risida” qaroriga muvofiq korrupsiyaga qarshi ko'rash soxasidagi xalkaro institutlar tavsiyalari va ilg'or dunyo tajribasi, jumladan ISO 37001 :2016 Korrupsiyaga qarshi ko'rash menejmenti tizimi — Talablar va ularni qo'llashga doir tavsiyalar” xalkaro standarti talablari va tavsiyalarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

3. Institut Siyosatni o'z faoliyati spetsifikasidan kelib chikib qabul qiladi, o'ziga xos va qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar va mavjud resurslar asosida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'z mexanizmlarini ishlab chikadi va joriy etadi.

4. Quyidagilar Institutda korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy maqsadi hisoblanadi:

Institut xodimlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunlari va korrupsiyaga qarshi kurashishga doir ichki hujjatlar talablarini tushunish va ularga rioya etilishi;

Institutda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish va korrupsiyaga barham berish;

Institutning barcha faoliyat soxalarida korrupsiyaning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish; axolining Institutning faoliyati yuzasidan huquqiy ongi va

huquqiy madaniyati darajasini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

Institut xodimlari faoliyatining shaffofligi va hulq-atvor me'yorlariga muvofiqligini ta'minlash;

korrupsiyaviy harakatlarni o'z vaqtida aniqlash, ularga barham berish, ularning okibatlari, ularni keltirib chikaruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaviy harakatlarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi tamoyilini ta'minlash;

Institutda mavjud korrupsiyaga barham berish.

Mazkur Siyosat talablari egallab turgan lavozimi va bajarayotgan funksiyasidan qat'iy nazar Institutning barcha xodimlari uchun birdek amal qiladi.

Institutga ishga kirayotgan har qanday shaxs mazkur Siyosat bilan imzo chekkan holda tanishishlari, uning qonun-qoidalariga rioya qilishi lozim.

Mazkur Siyosatning maqsadlari uchun quyidagi asosiy tushunchalar va atamalardan foydalaniladi:

**aloqador shaxslar** — Institut xodimi bilan tijorat institutlarining ustav kapitalida ishtirok etadigan shaxslar, aksiyalari Respublika fond birjasida ommaviy muomalada bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarining besh foizidan kam bo'lgan miqdordagi aksiyaga ega ekanligi bundan mustasno; davlat organlari va muassasalari — davlat xokimiyati va boshqaruvi organlari, fukarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari (jumladan, vazirliklar, xizmatlar, agentlik, markazlar va b. idoralar), va ularning tarkibiy bo'linmalari, shuningdek davlat tomonidan bevosita yoki bilvosita nazorat kilinadigan yuridik shaxslar;

**ish faoliyati yuzasidan mejmondo'stlik belgilari** — uchinchi shaxslarning hamkorlik o'rnatish va/yoki uni qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq bo'lgan, Institut xodimlarining sodikligini oshirishga qaratilgan, Institut xodimlari manfaatlari yo'lidagi harajatlari, jumladan uchinchi shaxslarning ovkatlanishi, ish faoliyati yuzasidan tushliklar tashkil etilishi bilan bog'liq harajatlari, transport harajatlari, yashash, ko'ngilochar tadbirlar, jumladan sayohat dasturlari bilan bog'liq harajatlar va h.k.; kontragent — Institut bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishgan (mehnat munosabatlari bundan mustasno) har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs;

**korrupsiya** — shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yohudud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda takdim etish;

**korrupsiyaviy xavf-xatar** — Institut xodimlari yoki uchinchi shaxslar tomonidan Institut nomidan yoki ularning manfaatlarini yo'lida korrupsiyaviy harakatlarni amalga oshirish xavfi; korrupsiyaviy harakatlar — xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlarini yo'lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaaddor bo'lishi, shu jumladan pul, qimmatbaxo qog'oz, boshqa ko'rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy harakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o'z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish; korrupsiyaviy huquqbuzarlik — sodir etilganlik uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida

javobgarlik belgilab qo'yilgan korrupsiya alomatlariga ega hatti-harakat; korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi — Institutda korrupsiyaga qarshi kurashish vazifasi yuklangan tarkibiy tuzilma; korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi — korrupsiyaviy harakatlarning, O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchiligi va Institutning korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga doir ichki hujjatlari buzilishining oldini olish, Institut xodimlari tomonidan o'z faoliyatini professional va hulq-atvor jihatdan yuksak darajada amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar;

**kronizm** (favoritizmning do'stona aloqalarga asoslangan ko'rinishi) — do'stlar yoki ishonchli shaxslarga noqonuniy imtiyozlar takdim etish maqsadida hokimiyat va/yoki obro'sidan foydalanish;

**mansabdor shaxs**: doimiy, vaqtincha yoki maxsus vakolat bo'yicha tayinlanadigan yoki saylanadigan, xokimiyat vakili vazifalarini bajaradigan davlat organlarida, fukarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida, mulk shaklidan qat'iy nazar, korxonalarda, muassasalarda, institutlarda tashkiliy-boshqaruv, ma'muriy xo'jalik vazifalarini amalga oshiradigan va yuridik ahamiyatga ega harakatlarni sodir etishga vakolat berilgan shaxs, xalkaro institutda yohudud chet davlatning qonun chikaruvchi, ijro etuvchi, ma'muriy yoki sud organida mazkur vazifalarni amalga oshiruvchi shaxs.

**manfaatlar to'qnashuvi** — Institut xodimining shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yohud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fukarolarning, institutlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat; mahalliychilik — mahalliy manfaatlarnigina ko'zlab ish tutish. Bunda, shaxsni uning nasliy kelib chiqishi (aslzoda yoki mashxur sulola vakili ekanligi va u jamoatchilik tomonidan e'tirof etilganligi) hamda yaqin qarindoshlarining egallab turgan xizmat mavqei sababli, uning lavozimga qo'yiladigan malaka talablariga mos kelish-kelmasligini hisobga olmagan holda ishga qabul qilish, rotatsiya qilish va lavozimga tayinlash;

**nepotizm** (tanish-bilishchilik, qarindosh-urug'chilik, favoritizmning qarindoshlik rishtalariga asoslangan ko'rinishi) - o'zining yaqin qarindoshlari yoki do'stlariga noqonuniy imtiyozlar berish maqsadida xokimiyatdan foydalanish va (yoki) ta'sir o'tkazish, shuningdek, yaqin qarindoshlari va (yoki) do'stlariga asossiz mukofotlar hisoblash, Institut manfaatlari zarariga, yaqin qarindoshlari va do'stlarini ishga qabul qilish va lavozimga tayinlashlar; rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlar — belgilangan tartib-taomillar yoki harakatlarni sodir etish bilan bog'liq standart tartiblar amalga oshirilishini ta'minlash yoki tezlashtirish maqsadida tegishli qonunchilik va normativ me'yorlar hamda qoidalarda ko'zda tutilmagan noqonuniy ravishda takdim etiladigan pul mablag'lari, mol-mulk, mulkiy huquqlar, xizmatlar hamda boshqa moddiy va nomoddiy foyda;

**urug'-aymoqchilik** — Institut xodimining avlod-ajdodlari bir bo'lgan, bir sulolaga mansublik asosida uchinchi shaxslarga nisbatan subyektiv, imtiyozli va noxolis munosabat shaklidagi shaxsiy manfaatdorligi;

**favoritizm** — Institut xodimi boshqa shaxs va/yoki shaxslar guruhi manfaatlariga qaraganda bitta shaxs va/yoki shaxslar guruhi manfaatlariga ustuvor ahamiyat karatishi, Institutda kadrlarni tanlash va joylashtirish, lavozimini ko'tarish, mukofot puli berish va davlat mukofotlariga tavsiya etish, ta'til berish yoki sihatgoxlar va xorijiy safarlarga yuborish, murojaatlar, shuningdek ish va navbatchilik jadvallarini ko'rib chiqishda ketma-ketlikni yo'lga qo'yish bilan bog'liq vaziyatlarda tartiblarga rioya kilmaslik.

**hayriya (hayriya yordami)** — yuridik va jismoniy shaxslar (hayriya qiluvchilar)ning institut uchun bepul yoki imtiyozlar asosida moddiy va/yoki nomoddiy boyliklar, xususan, pul mablag'lari shaklidagi boyliklarni topshirish, ular uchun ma'lum ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish va hayriya maqsadlaridagi boshqa qo'llab-quvvatlashlarni takdim etishda namoyon bo'ladigan ixtiyoriy beg'araz yordami;

**xalkaro institut** — davlatlar, hukumatlar yoki boshqa xalkaro institutlar tomonidan tashkiliy shakli va vakolatlaridan qat'iy nazar tashkil etilgan har qanday xalkaro institut, jumladan, masalan iktisodiy integratsiya bo'yicha mintaqaviy institutlar.

**xodim** — Institut bilan mehnat munosabatlariga kirishgan jismoniy shaxs;

**homiylilik (homiylilik yordami)** — yuridik va jismoniy shaxslar (homiylar) tomonidan Institut (homiylilik qilinayotgan muassasalar)ga ular uchun ishlar bajarib berish, xizmatlar ko'rsatish va hayriya maqsadlarida boshqa turdagi yordamlarni ko'rsatish, mol-mulk, jumladan pul mablag'lari takdim etish bilan ifodalanadigan yordami hisoblanib, ularning natijasida Institut muassasalarida homiy oldida o'zaro majburiyatlar yuzaga keladi;

**shafelik** — Institut xodimining lavozimi yuqorirok bo'lgan boshqa xodim tomonidan qulay mehnat sharoitlarini yaratib berish shaklidagi himoyasi, uni yoqlab yonini olishi; yaqin qarindoshlar — bir-biriga qarindoshlik yoki yaqin aloqasi bor shaxslar, ya'ni ota-ona, tug'ishgan hamda tutingan aka-ukalar va opa-singillar, er-xotin, farzandlar (jumladan asrab olingan farzandlar), buvalar, buvilar, nabiralar, shuningdek er (xotin)ning ota-onasi, tug'ishgan va tutingan aka-ukalari va opa-singillari.

## **2 bob. Korrupsiyaga qarshi kurashishning muhim tamoyillari**

**8. Korrupsiyaga qarshi ko'rash tizimi quyidagi tamoyillar asosida tashkil etiladi va faoliyat yuritadi:**

**qonuniylilik** — Institutdagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq davlat organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ilg'or dunyo tajribasi, shuningdek Institut ichki hujjatlariga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshiriladi;

**korrupsiyaga nisbatan murosasizlik (toqatsizlik)** — Institut o'z faoliyatining barcha soxalarida korrupsiyaning har qanday shakllari va ko'rinishlariga murosasiz (toqatsiz) munosabatda bo'ladi. Institut xodimlariga korrupsiyaviy xavf-xatar kelib chiqishi mumkin bo'lgan faoliyatda bevosita yoki bilvosita ishtirok etish qat'iy taqiqlanadi;

**ochiqlik va shaffoflik** — Institut xodimlari va kontragentlari, keng jamoatchilikni Institutda qabul qilingan va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida xabardor qilish (maxfiylik va xizmat siri to'g'risidagi qonun hujjatlari talablarini hisobga olgan holda); korrupsiyaga qarshi amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning preventiv xususiyatga ega bo'lishi, tizimliliigi va yaxlitligi — korrupsiyaning oldini olish, korrupsiyaviy harakatlarning sodir etilishiga xizmat qiluvchi sabab va shart-sharoitlar

hamda korrupsiyaviy xatarlarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishning ustuvorligi. Korrupsiyaga qarshi joriy etilayotgan chora-tadbirlar va tartib-taomillar aniklangan xavf-xatarlar darajasiga mos kelishi va Institutning barcha funksiyalari va yo'nalishlarini qamrab olgan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimiga birlashtirilishi;

**korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklar uchun javobgarlikning muqarrarlari** — korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklarni sodir etgan Institut xodimlari o'zining mavqei va egallab turgan lavozimidan qat'iy nazar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Institutning ichki hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi;

**ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlari va axborot texnologiyalaridan foydalanish** — Institut korrupsiyaga qarshi ko'rash tizimini shakllantirishda ilm-fan taraqqiyotining so'nggi yutuqlaridan, shu jumladan, integratsiyalashtirilgan axborot-kommunikatsiya tizimlaridan keng foydalanishga intiladi;

**to'g'ridan-to'g'ri rahbariyatga murojaat qilish** — Institutning har bir xodimi korrupsiyaviy harakat sodir etilganligiga doir ishonchli va asosli ma'lumotlar mavjud bo'lganda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Institutning ichki hujjatlarida ko'zda tutilgan chora-tadbirlarni qabul qilish uchun hududiy boshqarma yoki uning tasarrufidagi muassasa rahbari hamda institut rahbariga hech qanday tusiqsiz murojaat qilishi mumkin; fukarolik jamiyati vakillari bilan o'zaro hamkorlik — Institut o'ziga yuklatilgan funksiyalarni bajarishda ularning faoliyati ustidan mustaqil va xolis nazoratni amalga oshirish maqsadida fukarolik jamiyati vakillarini jalb qiladi;

**monitoring, taxlil va baholash:** Institut davriy asosda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi faoliyati monitoringi va tahlilini amalga oshiradi, shuningdek uning samaradorlik va natijadorlik ko'rsatkichlarini baholaydi.

**korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini doimiy ravishda takomillashtirish** — korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini monitoring va nazorat qilish hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish maqsadida Institutda korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini to'xtovsiz ravishda oshirish choralari ko'riladi.

### **3-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy yo'nalishlari.**

#### **1- Manfaatlarni to'qnashuvini boshqarish**

Institut xodimlari o'z lavozim majburiyatlarini xalol va vijdonan bajarishi, o'z mansab va xizmat mavqeidan va Institut tasarrufidagi mol--mulklardan shaxsiy manfaatdorlik yo'lida foydalanmasligi va manfaatlarni to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlardan saqlanishi lozim.

Institut xodimlari ishga qabul qilinayotganda, lavozimi ko'tarilayotganda va rotatsiya qilinayotganda har yili va tegishli vaziyatlar/shart-sharoitlar yuzaga kelishiga qarab manfaatlarni to'qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatdorligiga doir axborotni ochiq qilish lozim.

Institut xodimlari tomonidan manfaatlarni to'qnashuvi va uni tartibga solishga doir axborotni ochiq qilish jarayoni Institutda manfaatlarni to'qnashuvini boshqarish tartibi to'g'risida ichki idoraviy hujjatda belgilab qo'yiladi.

Manfaatlarni to'qnashuvini aniqlash uchun samarali nazorat tartib-taomillari Institut xodimlarining uchinchi shaxslar bilan o'zaro aloqasi ro'y beradigan barcha funksiyalarga joriy etilishi lozim (masalan, tanlov savdolarini tashkil qilish, reytinglarni hisoblash va h.k.).

## ***2- Ish yuzasidan sovg'alar va mexmondo'stlik belgilarini qabul qilish***

Institut xodimlariga o'z xizmat majburiyatlarini bajarishi doirasida jismoniy va yuridik shaxslardan sovg'alar mexmondo'stlik belgilari, jumladan qarz, kafolatlar, kafillik, mukofot, moddiy yordam, naqd pulsiz va naqd pul mablag'lari yoki ularning ekvivalentlari, kimmatbaxo kogo'zlar, kriptovalyuta, boshqa moddiy qadriyatlar yoki xizmatlar ko'rinishidagi rag'bat vositalarini olish taqiqlanadi.

Bunda, konferensiyalar, seminarlar va turli shu kabi uchrashuvlarda takdim etiladigan umumiy qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravaridan oshmaydigan buyumlar bundan istisno hisoblanadi,

Institutda ichki korrupsiyaning oldini olish maqsadida xodimlar o'rtasida xizmat majburiyatlarini qabul qilish bilan bog'liq bo'lmagan va xodim shaxsi bilan bog'liq deb e'tirof etilgan sovg'alarni berishda quyidagilarga rioya kilinadi:

sovg'a oluvchi uchun manfaatlar to'qnashuvi vaziyatini keltirib chiqarmasligi va sovg'a beruvchi oldida biror-bir majburiyatlarni yuzaga keltirmasligi lozim, sovg'a ochiq-oydin beriladi, sovg'a berilayotgani yashirilmaydi; sovg'ani fakat umum e'tirof etilgan bayramlar (tavallud ayyomi, farzand tug'ilishi, Vatan himoyachilari kuni, Xalkaro xotin-qizlar kuni, Yangi yil va h.k) munosabati bilan berishga ruxsat etiladi;

sovg'alar Institutning kamida uchta xodimi ishtirokida berilishi lozim; sovg'ani berish chog'ida sovg'a berish uchun sabab bo'lgan voqea-hodisa aniq bayon etiladi; sovg'aning umumiy qiymati (barcha soliq va yig'imglar bilan birga) bazaviy hisoblash miqdorining 5 (besh) barobaridan oshmasligi lozim;

Institutning bir xodimi ikkinchi xodimga sovg'a olish uchun sarflaydigan summa miqdori har holatda bazaviy hisoblash miqdorining 1 (bir) barobaridan oshmasligi lozim.

Shubha (gumon)lardan xoli bo'lish uchun har qanday bayramlar (jumladan, lekin cheklanmagan holda tug'ilgan kun, farzand tug'ilishi, Vatan himoyachilari kuni, Xalkaro xotin-qizlar kuni, Yangi yil va h.k) munosabati bilan mazkur Siyosatning 13 va 14-bandlarida keltirib o'tilmagan boshqa davlat organlari va institutlari xodimlari, hamkorlar va kontragentlar, boshqa jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan mazkur Siyosatning 13-bandida sanab o'tilgan sovg'alar va moddiy boyliklar olish taqiqlanadi.

Institut nomidan xalkaro konferensiyalar, simpoziumlar va boshqa ish yuzasidan (xizmat) uchrashuvlarida sovg'alar berish rahbar buyrugiga ko'ra muvofiq amalga oshiriladi.

Sovg'a berish, uni qabul qilishning qonuniyligida shubha tug'ilgan takdirda Institut xodimi Institutda Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasiga maslaxat so'rab murojaat qilishi lozim.

## ***3-Institut xodimlarining ish faoliyati yuzasidan o'tkaziladigan tadbirlarda ishtirok etishi***

Institut xodimlarining xalkaro va boshqa institutlar taklifiga ko'ra ish faoliyati yuzasidan o'tkaziladigan tadbirlari (ko'rgazmalar, seminarlar, konferensiyalar va h.k.)da ishtirok etishiga quyidagi shartlarga rioya qilgan takdirda ruxsat etiladi:

tadbir O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, mazkur Siyosat tamoyillari va talablari hamda Institutning boshqa ichki hujjatlariga mos kelsa;

tadbir Institut yoki taklif etgan tomonning qonuniy manfaatlariga xizmat qilsa;

tadbir Institut xodimlari tomonidan u yoki bu qarorlar qabul qilinishiga ta'sir kilmayligi, biror-bir noqonuniy afzalliklarni qo'lga kiritishni (masalan, buyurtmachilarga tadbirni o'tkazayotgan loyixa-tadqiqot institutiga murojaat qilishni tavsiya qilish) ko'zlagan yashirin noqonuniy mukofotlash maqsadi bo'lmasligi lozim;

Tadbir bunday tadbirda ishtirok etishga doir ma'lumotlar oshkor qilingan takdirda Institut va taklifni qabul qiluvchi yoki taklif etayotgan tomon mavqei uchun xatar tug'dirmasligi lozim;

Tadbir umum e'tirof etilgan ilmiy va ishbilarmonlik amaliyotiga mos kelishi hamda ko'ngilochar mazmundagi xususiyat kasb etmasligi lozim;

Tadbir mohiyati va qiymatiga ko'ra o'rinli bo'lishi, haddan ziyod xashamatli, qimmat, g'ayriodatiy bo'lmasligi va tez-tez takrorlanib turmasligi lozim.

Agar ishbilarmonlik tadbirlari (seminar, simpozium, davra suxbatlari va h.k.) tasischisi Institut o'zi bo'lsa, u holda bunday ishbilarmonlik tadbiri ushbu siyosatda qayd etilgan talablarga mos kelishi lozim.

#### ***4-Kadrlar bilan bog'liq jarayonni tartibga solish (xodimlarni tanlash, lavozimini oshirish, moddiy rag'batlantirish)***

Institut xodimlarini tanlash, attestatsiyadan o'tkazish va ularning faoliyatini baholash, jumladan mukofot, ustamalar va rag'batlantirishning boshqa turlarini amalga oshirish jarayoni barcha xodimlar uchun shaffof, teng huquqli va xolis hisoblanib, mazkur Siyosatning asosiy tamoyillari va talablariga mos kelishi lozim.

Nomzodlarni Institutga tanlash va tayinlash jarayoni Nomzodlarni institutga qabul qilish uchun tekshirish bo'yicha qo'llanma va Institutning boshqa ichki hujjatlariga, manfaatlar to'qnashuvini boshqarish tartibiga muvofiq kompleks ravishda tekshirish bilan birga amalga oshiriladi.

Institutda xodimlarga oid masalalarda qaror qabul qiluvchi xodimlarning lavozimini oshirganda, lavozimga tayinlanganda, kadrlar zaxirasiga qo'shganda va h.k.larda nomzod (xodim)larga har qanday asossiz imtiyozlar takdim etishi taqiqlanadi.

Bo'sh lavozimlarga saralab olish egallanayotgan lavozimga qo'yiladigan talablarga muvofiq tanlov asosida yoki boshqa usul yordamida amalga oshirilishi lozim. Bunda nomzodning malakasi, kasbiy va ilmiy yutuklariga asosiy e'tibor karatiladi.

Institutda xodimlar faoliyati samaradorligining muxim ko'rsatkichlarini baholash tartibi va mezonlari ishlab chiqilishi va xodimlar uning asosida rag'batlantirilishi lozim. Mazkur ko'rsatkichlar xolis, shaffof va Institut xodimlari tanishib chiqishi uchun ochiq bulishi lozim.

#### ***5-Tekshiruvlar o'tkazish va davlat organlari va institutlari faoliyatini o'rganish***

Turli tekshiruvlar, o'rganishlar, monitoring o'tkazishda (keyingi o'rinlarda — tekshiruv obyektlari) Institut xodimlari:

manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishiga yo'l qo'ymasligi; tekshiruv, o'rganish, monitoring obyekti tekshiruvi, o'rganishi, monitoringini yakka o'zi amalga oshirmasligi; tekshiruv, o'rganish, monitoring obyektiga tashrif buyuruvchilar yoki ularning vakillari institut, uning xududiy va tarkibiy bo'linmalariga shaxsan tashrif buyurganda ular bilan yolg'iz qolmasligi; yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan qoidabuzarliklarni soxtalashtirish maqsadida tekshiruv, o'rganish o'tkazish, O'zbekiston Respublikasi qonunchilik normalarini notug'ri talkin kilmayligi, tekshirilayotgan obyekt xodimlarini aniklangan

faktlarni huquqni muxofaza qilish yoki boshqa davlat organlariga topshirish bilan kUrkitmasligi; tekshiruv, Urganish, monitoring obyekti xodimlariga taxdid kilmashligi; hujjatlarni so'rab olish va tekshiruv, Urganish, monitoring predmetiga kirmaydigan masalalar bilan kizikmasligi lozim;

tekshiruv, Urganish, monitoring davomida aniklangan har bir qoidabuzarlikning qonuniY va professional baxolanishini ta'minlashi; qoidabuzarliklarning video yoki fotokaydini amalga oshirishi (Urni kelganda), Institut tomonidan foydalaniladigan axborot tizimlariga qoidabuzarliklarga oid ma'lumotlarni kiritishi; agar tekshiruv, Urganish, monitoring obyekti vakillari Institut xodimiga aniklangan qoidabuzarliklarni yashirish maqsadida pora yoki har qanday moddiy boyliklar yoki xizmatlar takdim etayotgan bUlsa, bu xakida tekshiruv bo'yicha ishchi gurux rahbariga va Institutdagi korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat tuzilmasiga zudlik bilan xabar berishi;

tekshiruv, Urganish, monitoring obyekti vakillariga Institut xodimlarining hulq-atvor tamoyillariga muvofiq xolis munosabatda bUlishi shart.

Institut tomonidan O'tkazilgan tekshiruvlar, Urganishlar va monitoring natijalari yuzasidan kelib tushgan e'tirozlarni ko'rib chiqish uchun komissiya tashkil etiladi.

#### ***6-Vakolatli davlat organlari, kontragentlar va uchinchi shaxslar bilan shaffof va samarali o'zaro hamkorlikni ta'minlash***

Institut mazkur Siyosat tamoyillari va talablari hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchilik normalariga zid har qanday to'lovlarni yoki harakatlarni amalga oshirish uchun yetkazib beruvchilar, pudratchilar va boshqa uchinchi shaxslarni jalb kilmaydi.

Kontragentlar bilan munosabatlarda Institut qonuniylik va shaffoflik tamoyillariga amal qiladi.

Institutda obyektiv mezonlardan foydalanishga asoslangan yetkazib beruvchilar, pudratchilar va boshqa kontragentlarni tanlashning xalol, ochiq va shaffof jarayoni, shuningdek sotib olinayotgan tovar va xizmatlar kiYmatini belgilashning shaffof tartibi joriy etilib, ular O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Institutning ichki hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Kontragentlar bilan o'zaro hamkorlikda Institut:

Institutda kontragentlarni tekshirish bo'yicha yUriknoma va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq potensial kontragentning ishonchliligi, jumladan u Utmishda korrupsiyaviy faoliyatga jalb qilingan yoki kilinmaganligi, Institut xodimlari bilan manfaatlar to'qnashuvi mavjud yoki mavjud emasligini tekshiradi; potensial kontragent, jumladan harid tartib-taomillari golibini u bilan shartnoma matniga maxsus korrupsiyaga qarshi shartlarni kushish orqali o'zining korrupsiyaga qarshi tamoyil va talablari xakida xabardor qiladi.

Vakolatli davlat organlari bilan o'zaro hamkorlik qilishda (masalan, litsenziya berish, ixtisoslashtirilgan kengashlarda ishtirok etish, turli hujjatlar, obyektlarni kelishishda va h.k) Institut hujjatlarni ko'rib chiqishning shaffofligi va xolisligini ta'minlaydi hamda zarur hollarda mazkur davlat organlari tomonidan salbiy va boshqa xulosalarga kelish sabablari xususida qo'shimcha ma'lumotlarni talab qiladi.

## ***7-Xayriya va xomiylik faoliyatining shaffof va samarali jarayonini ta'minlash***

Institut qonunchilik bilan belgilangan holatlarda xayriya va xomiylik yordamini qabul qilishi mumkin. Bunday yordamni olishda manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik, mablag'larni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi yoki shartnomada ko'rsatilgan maqsadlarga samarali va maqsadli yo'naltirilishini ta'minlash, shuningdek xayriya va xomiylik faoliyatiga doir axborotni Institutning Internet tarmog'idagi rasmiy veb-saytida ochiqlash bo'yicha barcha chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Institut tomonidan qabul qilinayotgan xayriya yoki xomiy yordami yashirin mukofot tarzida bo'lmasligi va Institutning alohida xodimlari tomonidan xayriya qiluvchi yoki xomiy, uning yaqin qarindoshlari, ularga aloqador shaxslar, shuningdek xayriya qiluvchi yoki xomiyda ularga nisbatan shaxsiy manfaatdorligi bo'lgan shaxslar foydasiga qaror qabul qilinishiga ta'sir ko'rsatmasligi lozim.

Institut tomonidan xayriya yoki xomiylik yordamini olishda quyidagi talablar bajarilishi lozim:

xayriya qiluvchi yoki xomiy bilan albatta shartnoma tuzish va unda xayriya yoki xomiylik yordamini olish va undan foydalanish maqsadlari, yordam shakllari, yordamning pul ifodasidagi summasi, xayriya qiluvchi yoki xomiy oldida kelib tushgan yordamdan maqsadli foydalanish to'g'risida hisob berish usuli belgilab qo'yilishi lozim;

bunday shartnomaga korrupsiyaga qarshi shartlarni kiritish;

Institutning Internet tarmog'idagi rasmiy veb-saytida olingan xayriya yoki xomiylik yordamiga doir axborotni joylashtirish.

## ***8-Ichki hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasi***

Ichki hujjatlarning huquqiy ekspertizasini o'tkazishda Institutning yuridik xizmati korrupsiyaviy harakatlarni amalga oshirish uchun imkoniyat yaratuvchi korrupsiyaviy omillar mavjudligi va ularni hujjatlardan chikarib tashlash maqsadida ekspertiza o'tkazadi.

## ***9-Institut faoliyati soxasiga yangi texnologiyalarni joriy etish***

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish maqsadida Institut xodimlari o'z funksiyalari va lavozim majburiyatlarini axborot texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshiradi (agar imkoni mavjud bo'lsa).

Davlat haridlari doirasida tanlov savdolarini o'tkazishda Institut xodimlari axborot texnologiyalaridan foydalanadi va tanlov savdolari ishtirokchilari bilan o'zaro aloqani elektron shaklda onlayn rejimida boshqa elektron tizimlar bilan integratsiya qilish imkoniyatini qo'llagan holda amalga oshiradi.

## ***10-Institutdagi faoliyatni video qayd qilish va uning translyatsiyasi***

Institut binolarida xodimlar faoliyatini nazorat qilish maqsadida audio va videoyozuv kameralari o'rnatilib, ulardagi yozuvlar Institutning mas'ul xodimlari tomonidan ko'rib boriladi.

Institutning Internet tarmog'idagi rasmiy saytlarida korrupsiya xavf xatari yuqori bo'lgan ayrim jarayonlarning onlayn translyatsiyasi joylashtiriladi (xususan, xodimlar bilan suhbat o'tkazish, ularni testdan o'tkazish, komissiyalar yig'ilishlari va h.k.).

## ***4 bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi elementlari***

### ***1-Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha muhim ichki hujjatlar mavjudligi***

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi asosini:

mazkur Siyosat;

Institut xodimlarining odob-axloq qoidalari;

Institutda manfaatlar to'qnashuvini boshqarish tartibi to'g'risidagi Nizomda aks ettirilgan tamoyillar va talablar tashkil etadi.

Institut rahbarlari xodimlarga oliy rahbarlik namunasini ko'rsatishi lozim.

Institut rahbari va uning o'rinbosarlari, shuningdek institut tarkibiy bo'linmalari rahbarlari o'ziga bo'ysunuvchilar, fukarolar va yuridik shaxslarga nisbatan munosabatlarda xalol, odil va mustaqil hulq-atvor namunasi bo'lishi va shu orqali ular korrupsiyaviy harakatlarga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Institut rahbari va ularning o'rinbosarlari, shuningdek institut tarkibiy bo'linmalari rahbarlari Institut faoliyatining xavf-xatar funksiyalari (yo'nalishlari)ga korrupsiyaga qarshi samarali chora-tadbirlar va tartib-taomillarni joriy etish orqali korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali tizimini barpo etish va amalga oshirishga nisbatan liderlikni namoyish qiladi.

### ***2-Korrupsiyaviy xavf-xatarni aniqlash va baholash***

Institut o'z faoliyatiga xos korrupsiyaviy xavf-xatarni aniqlash va baholashni tashkiliy tuzilmalar funksiyalarining xususiyati, jamiyat va boshqa shaxslar bilan o'zaro munosabatlar, shuningdek Institutda korrupsiyaviy xavf-xatarni baholash uslubiyotiga muvofiq tashqi va ichki omillarni hisobga olgan holda amalga oshiradi.

Korrupsiyaviy xavf-xatarni baholash bir yilda bir martadan kam bo'lmagan vaqtda o'tkaziladi. Korrupsiyaviy xavf-xatarni baholash natijalari Institutning rahbari tomonidan ko'rib chiqiladi. Aniklangan xavf-xatarni minimallashtiruvchi korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlar va tartib-taomillar Institutning korrupsiyaga qarshi dastur yoki yo'l haritalarida aks ettiriladi.

### ***3-Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun mas'ul***

Institutda korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali tizimini shakllantirish uchun alohida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi tashkil etiladi.

Institutda Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi o'z faoliyatini Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi to'g'risidagi nizom asosida amalga oshiradi va bevosita Institut rahbariga (Institut xay'atiga) bo'ysunadi.

Institut rahbari Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasini Institut korrupsiyaga qarshi vazifalarni amalga oshirish uchun yetarli darajadagi mustaqillik va zarur resurslar bilan ta'minlaydi.

Institutning kadrlar boshqarmasi (bo'limlari) Institutda manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi nizom, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi normalarida ko'zda tutilgan tartib va hajmda xodimlarning yaqin qarindoshlari va ularga aloqador shaxslarga doir ma'lumotlarning tizimli va o'z vaqtida yig'ilishi, taxlil qilinishi va aktuallashtirilishi uchun javob beradi.

Institutning barcha muassasalarida alohida Odob-axloq komissiyalari faoliyat yuritadi.

Institutdagi Odob-axloq komissiyalari Institutdagi xodimlarning etik hulq-atvor qoidalari bilan belgilangan hulq-atvor me'yorlariga rioya qilish masalalarini ko'rib chikadi, shuningdek Institutda manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi nizomda

belgilangan tartibda manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq vaziyatlarni tartibga solish jarayonida ishtirok etadi.

#### ***4-Institutning korrupsiyaga qarshi siyosati to'g'risida xodimlar va uchinchi shaxslarning xabardorligini taminlash***

Institut korrupsiyaviy xavf-xatarlarni qiskartirish va jamiyat xabardorligini oshirish maqsadida mazkur Siyosat va o'zlari tomonidan amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarga oid asosiy axborotlarni rasmiy veb-saytlarida joylashtiradi.

Institut barcha kuch va imkoniyatlarini xodimlari va boshqa manfaatdor shaxslarga quyidagilar orqali O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi qonunchiligi normalari, shuningdek joriy etilgan korrupsiyaga qarshi tamoyillar, chora-tadbirlar va talablar to'g'risida xabar berish va ularni tushuntirishga sarflaydi:

Institut rahbariyati tomonidan elektron manzil va boshqa aloqa vositasi orqali Institutda xodimlar tomonidan korrupsiyaga qarshi qabul qilingan normalar va talablarga rioya qilinishi muxim ekanligiga doir doimiy xabarlar yuborish;

Institut xodimlarini Institutda korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha o'qitishga doir rejaga muvofiq korrupsiyaga qarshi kurashish asoslari bo'yicha muntazam va tizimli ravishda bir yilda kamida bir marta o'qitilishi hamda testdan o'tkazilishini ta'minlash;

Yangi xodimlarni ishga qabul qilayotganda ushbu Siyosat va Institutning korrupsiyaga qarshi kurashishga doir boshqa ichki hujjatlari bilan albatga tanishtirgan holda, ular uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha majburiy kurslarni tashkil etish,

Institutdagi korrupsiya xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimlar uchun korrupsiyaga qarshi o'qitishning qo'shimcha dasturlari belgilanadi. O'tkazilgan o'quv kurslari/treninglarga oid ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda Institutning Kadrlar bo'limida saqlanadi;

mavzuga doir audio va videoroliklar hamda Institut xodimlari va fukarolarning korrupsiyaga qarshi kurashish va ularda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi xabardorligini oshirishga qaratilgan boshqa axborot materiallaridan foydalangan holda korrupsiyaga qarshi kompaniyalar tashkil qilish; mazkur Siyosat qoidalarini qo'llash yoki korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar va tartib-taomillarni amalga oshirish bilan bog'liq savollar tug'ilganda, Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi tomonidan Institut xodimlariga maslaxatlar berish;

tasdiqlangan reja asosida Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi tomonidan Institutda korrupsiyaga qarshi hulq-atvorni faol tarzda targ'ib qilish;

Institut xodimlari mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi qoidalarini kiritish. Institut mazkur Siyosat kuchga kirgan vaqtdan boshlab Institutning yangi xodimlari bilan tuziladigan, shuningdek shartlarni qayta ko'rib chiqish doirasida xodimlarning amaldagi mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi qoidalarini kiritadi;

Institut kontragentlari, hamkorlari, xayriya qiluvchilari, xomiylari bilan tuziladigan shartnomalarga korrupsiyaga qarshi shartlarni kiritish. Korrupsiyaga qarshi shartlar mazkur Siyosat kuchga kirgan vaqtdan boshlab Institutning yangi kontragentlari, hamkorlari, xayriya qiluvchilari, xomiylari bilan tuziladigan shartnomalarga kiritiladi. Korrupsiyaga qarshi shartlar Institutning barcha shartnomalariga kiritiladi (elektron do'kon, elektron

aukcion orqali harid natijalari bo'yicha va davlat tabiiy monopoliyalari (pochta, elektr energiyasi, gaz ta'minoti, suv ta'minoti, temir yo'llari, havo yo'llari va h.k.) bilan tuziladigan shartnomalar bundan mustasno). Korrupsiyaga qarshi shartlar mazkur Siyosat qabul qilinishidan oldin tuzilgan shartnomalarga shartlarni qayta ko'rib chiqish doirasida yoki tashabbusga ko'ra kiritiladi.

#### ***5-Monitoring, nazorat va hisobdorlik***

Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun mas'ul Institutda amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning doimiy monitoringi, nazorati va ularning samaradorligi, yetarliligi va mutanosibligini baholanishini amalga oshiradi. O'tkazilgan monitoring natijalariga ko'ra Institutda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini shakllantirishga doir tegishli chora-tadbirlar qabul kilinadi.

Monitoring va nazorat Institutda Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyotiga va Institutning boshqa ichki hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi monitoringi quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirilishi lozim:

Institut faoliyati funksiyalari va o'ziga xos jihatlari, uning tashkiliy funksional tuzilmasi hamda boshqa tashqi va ichki omillaridagi o'zgarishlarning Institutning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi va uni to'g'irlash zarurati, jumladan uning O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiqligini ta'minlashga ta'siri taxlili;

O'zbekiston Respublikasining faoliyatida qo'llaniladigan korrupsiyaga qarshi kurashish soxasidagi qonunchiligi va xokimiyat organlari tavsiyalarining monitoringi; xalkaro va xorijiy institutlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha samarali tizimini yaratish va qo'llab-quvvatlash masalalariga doir tavsiyalari monitoringi;

ommaviy axborot vositalarining Institut yoki xodimlari korrupsiyaviy harakatlarga jalb qilinganligi to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek Institut kontragentlari yoki hamkorlari to'g'risida xuddi shunday ma'lumotlar mavjudligi yuzasidan monitoring;

samarasiz nazoratlar va tartib-taomillarni aniqlash uchun ularni takomillashtirish hamda korrupsiyaga qarshi tizim ishonchliligi va samaradorligini ta'minlash maqsadida tanlov asosida Institutning ichki jarayonlari va funksiyalarini monitoring qilish;

Institutning korrupsiyaga qarshi dasturi yoki yo'l haritasi bandlari bajarilishining to'liqligi va samaradorligini monitoring qilish;

Institut xodimlari tomonidan qabul qilingan korrupsiyaga qarshi talablar va joriy etilgan tartib-taomillarga rioya qilinishini tekshirish;

Institut xodimlarining korrupsiyaga qarshi asosiy tamoyillar va talablar to'g'risida xabardorligini tekshirish;

Institutda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligi (korrupsiyaviy xavf-xatarlar mavjud emasligi) korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini ichki auditini o'tkazish, jumladan Institutda belgilangan talablar va tartib-taomillarga rioya etilishini nazorat qilish orqali tekshiriladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini monitoring va nazorat qilish

tadbirlari yakunlari va natijalari korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati xakidagi hisobotlarida aks etgiriladi. Hisobotlarni shakllantirish va takdim etish tartibi

Institutda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati hakidagi hisobotlarini shakllantirish va takdim etish bo'yicha ichki idoraviy hujjatda mustaxkamlab qo'yiladi.

#### **6-Javobgarlik**

Mazkur Siyosatga mos kelish va Institutning korrupsiyaga qarshi talablari va tartib-taomillariga rioya qilish har bir xodimning o'z lavozim majburiyatlarini bajarish doirasidagi majburiyati hisoblanadi. Xodimlar mazkur Siyosat va Institutning boshqa ichki hujjatlarida belgilab qo'yilgan korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga oid talablar va tartib-taomillarni buzganligi uchun shaxsan javobgar bo'ladi.

Korrupsiyaga nisbatan murosasizlik (toqatsizlik) tamoyiliga amal qilgan holda Institutning barcha xodimlariga bevosita yoki bilvosita, shaxsan yoki vositachilar orqali har qanday korrupsiyaviy harakatlarda ishtirok etish qat'iyyan man etiladi, ya'ni:

o'z mansab va xizmat mavqeidan noqonuniy foydalanish, shuningdek xizmat mavqei va vakolatlarini suiste'mol qilish maqsadida har qanday shaxslardan noqonuniy foyda talab qilish, so'rab olish yoki so'rash, olishga rozilik berish yoki olish, shuningdek xodim tomonidan o'z lavozim mavqeidan Institutning qonuniy manfaatlariga zid ravishda, jumladan o'zi va uchinchi shaxslar uchun noqonuniy foyda olish maqsadida noqonuniy foydalanish;

davlatning mansabdor shaxsi yoki boshqa har qanday shaxsga uning harakatlariga ta'sir o'tkazish (harakatsizligini ta'minlash) va/yoki shaxs, jumladan Institut manfaatlarini yo'lida noqonuniy afzalliklarni qo'lga kiritish maqsadida lavozim majburiyatlarini noqonuniy tarzda bajarishga undash, noqonuniy foyda (pora, poraxo'rlik) ni taklif qilish, va'da berish, bunga ijozat berish, takdim etish;

rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlar undirish, olish yoki amalga oshirish;

poraxo'rlik yoki tijoriy poraga olishda vositachilik qilish, jumladan pora oluvchiga noqonuniy foydani topshirish yoki pora oluvchi yoki beruvchiga ular o'rtasida noqonuniy foydani olish va berish bo'yicha kelishuvga erishishda yordam berish;

Institut xodimlarining korrupsiya belgilari mavjud bo'lgan yoki uni sodir etish, jumladan manfaatlar to'qnashuvi holatlari yuzaga kelishiga xizmat qiluvchi boshqa harakatlari yoki harakatsizligi,

Xodimlar o'z rahbari va Institutning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullariga ularni korrupsiyaviy harakatlarini sodir etishga undash maqsadida murojaat qilgan shaxslar bilan bog'liq, shuningdek ularga ma'lum bo'lgan boshqa xodimlar tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy harakatlarga oid barcha holatlar to'g'risida xabar berishi lozim.

Korrupsiyaga nisbatan murosasizlik (toqatsizlik) tamoyilini hisobga olgan holda Institutda xodimlar tomonidan korrupsiyaviy harakatlar sodir etilganligiga doir har bir asosli gumon bo'yicha Institutda xizmat tekshiruvlarini o'tkazish bo'yicha reglament va boshqa ichki hujjatlarda ko'zda tutilgan tartibda hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq xizmat tekshiruvini o'tkaziladi.

Mazkur Siyosat, korrupsiyaga qarshi qonunchilik talablari va/yoki Institutning boshqa ichki hujjatlarida mustahkamlab qo'yilgan korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarni buzgan Institut xodimlari lavozimi, xizmat muddati va boshqa omillardan qat'iy

nazar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Institutning ichki hujjatlari doirasida va ularda ko'zda tutilgan asoslar bo'yicha javobgarlikka tortiladi.

Korrupsiyaviy harakatlar aniklangan takdirda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tuzilma ularni yuzaga kelish sabablari va imkoniyatlarini taxlil qiladi va doimiy ravishda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtiradi.

Ichki tekshiruvlar natijalari doimiy ravishda rahbarga, Institut xay'ati va Institutning tegishli tarkibiy bo'linmalari rahbarlariga takdim etiladi.

Institut korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni aniqlash va tergov qilish uchun huquqni muxofaza qilish va boshqa davlat organlari bilan hamkorlik qiladi.

### **5-bob. Korrupsiyaviy harakatlarga doir xabarlar**

Institut xodimlarining harakatlari qonuniyligi yoki etikaga mosligi yuzasidan shubha, korrupsiyaviy harakatlar yoki boshqa qoidabuzarliklar bilan bog'liq taxminlar yoki sodir etilganligiga oid asosli gumonlar yuzaga kelgan takdirda ular hakida Institutning umumfoydalanuvdagi aloqa kanallari orqali ochiq xabar berilishi mumkin.

Institut o'z vakolatlari va mavjud imkoniyatlari doirasida qoidabuzarlikka oid asosli axborotni takdim etgan shaxsga doir ma'lumotlar maxfiyligini ta'minlaydi, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan holatlar bundan mustasno.

Institut o'z xodimlari manfaatlarini himoya qiladi va boshqa xodimlarning shubxali hulq-atvori yoki mazkur Siyosatning korrupsiyaga qarshi kurashish talablari buzilgan bo'lishi mumkinligi hakida vijdonan xabar bergan xodimlarga nisbatan ishdan bo'shatish, lavozimini tushirish, diskriminatsiya, zulm o'tkazish, ta'qib qilish singari o'ch olish harakatlariga yo'l qo'yilmasligini kafolatlaydi.

Institutning aloqa kanallari orqali kelib tushgan barcha xabarlar Institut mas'ul shaxslari tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Institutdagi korrupsiyaviy harakatlar to'g'risida xabar berishga mo'ljallangan aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ularni ko'rib chiqishga oid ichki hujjatlar va Institutning boshqa ichki hujjatlariga muvofiq o'z vaqtida va xolisona ko'rib chiqiladi.

Institut xodimlari tomonidan ataylab yolg'on xabar yuborish mazkur Siyosat talablarini buzish va etikaga zid hulq-atvor namunasi sifatida baxolanadi, bu hakida xabar bergan shaxs esa o'z navbatida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Institutning ichki hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortilishi mumkin.

### **6-bob. Qayta ko'rib chiqish va o'zgarishlar kiritish tartibi**

Mazkur Siyosat quyidagi hollarda qayta ko'rib chiqilishi va to'g'irlanishi mumkin: mavjud korrupsiyaga qarshi siyosatlar va tartib-taomillarni kayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltiruvchi O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurash soxasidagi qonunchiligi o'zgarganda;

samarasiz korrupsiyaga qarshi nazorat tadbirlari va tartib-taomillari aniqlanganda, shuningdek Institut faoliyatida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni takomillashtirish zarurati yuzaga kelganda;

Institutning tashkiliy tuzilmasi va/yoki funksiyalarining o'ziga xos jihatlari o'zgarganda va h.k.